

AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV ILMIY VA HAYOTIY IZLANISHLARI

Bobohusenov Akmal Ashurovich*Buxoro Innovatsion ta'lim va Tibbiyot Universiteti o'qituvchisi***ANONTATSIYA**

Kirish: Maqolada Buyuk arxeol ustoz Yahyo G'ulomov tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar tariximizni yoritishdagi ahamiyati. Tadqiqotlar davomida o'rganishda ilmiy izlanishlari va hayot tajribalari yoritilgan. Maqolada O'zbekiston hududi bo'yicha olib orilgan tadqiqotlar ham o'rin tutgan.

Kalit so'zlar: Arxeologik ekspeditsiya, tadqiqot, xona arxeologiy

АННОТАЦИЯ

Введение: В статье подчеркнута значимость научной деятельности великого археолога Яхьи Гуломова в освещении нашей истории. В ходе исследования были освещены его научные изыскания и жизненный опыт. Также в статью были включены исследования, проведенные на территории Узбекистана.

Ключевые слова: Археологическая экспедиция, исследования, комнатная археология, культурный слой, материальный источник, asl, madaniy qatlam, moddiy manba,

ANONTATSIYA

Introduction: The article discusses the importance of the scientific work carried out by the great archaeologist Yahyo Gulyamov in illuminating our history. His scientific research and life experiences during the research are highlighted. The article also includes research conducted on the territory of Uzbekistan.

Keywords: Archaeological expedition, research, room archaeology, cultural layer, material source,

Dono xalqimiz davrasida doimo bilimdon, yetuk ustozlar to'g'risida so'z yuritilganda, "ustoz otangdan ulug'" degan nihoyatda e'tiborli qutlug' ibora beixtiyor tilga olinadi. Darhaqiqat, hayotiy mohiyati jihatidan ustozlar o'z salohiyati bilan otadanma'lum darajada ajralib turadilar. Holbuki, har faslning o'z hislati bo'lganidek, har sohaning kasb-hunar yoki ilm-fan bo'lmasin, ularning komil daholari bo'ladi. O'z sohalari bo'yicha ular yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi rahnamo va tarbiyalovchi murabbiylardir.

Akademik Yahyo G'ulomov umrini tarix faniga, arxeologik izlanishlar, Vatani va mehnatkash o'zbek xalqining kelib chiqishi(etnogenezi), uzoq qadimiy o'tmishi, xususan bunyodkorlik xo'jaligi, madaniyati va ma'naviyatining tarixiy asoslarini

belgilabolib, ularni keng ko‘lamda tadqiq etishga bag‘ishlagan zabardastolim va kuchli salohiyatga ega ustozlardan edi.

G‘ulomov Yahyo G‘ulomovich - taniqli olim-arxeolog, tarix fanlari doktori, professor, O‘zbek SSR Fanlar akademiyasi akademiki (1966), O‘zbek SSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1950). U birinchi o‘zbek arxeolog-mutaxassis, ko‘plab ilmiy ekspeditsiyalarning faol ishtirokchisi bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan, Y.G.G‘ulomov O‘zbekistonning ibtidoiy madaniyati va O‘rta Osiyo qurg‘ochiligi tarixi ishlari tufayli tanilgan va hurmat qozongan.

Yahyo G‘ulomov G‘ulomovich 1908 yil 1 may kuni Toshkentda mudarris oilasida tug‘ilgan¹. 1919 yil otasining vafotidan so‘ng, qizlar maktabi o‘qituvchisi bo‘lgan onasining qaramog‘ida qoladi, 1921 yildan bolalar internat uyida tarbiyalanadi. O‘rta maktabning sakkizinchi sinfini tugatib (1923 yildan 1926 yilgacha), Ya.G‘.G‘ulomov Toshkentdagi o‘g‘il bolalar o‘zbek ma‘naviyat institutida ta‘lim oladi.

“1929 yili men hali talaba edim, - deb xotirlardi o‘sha damlarni Yahyo G‘ulom, - professor B. Soliyev, V. Vyatkin hamda A. Fitrat o‘zaro maslahatlashib, institutda “O‘rta Osiyo tarixi va adabiyoti” kabineti ochib, shunga meni assistent qilib tayinlashdi. Kabinetga juda ko‘p qo‘lyozma kitoblarni to‘pladik”. Demak, Yahyo G‘ulom mashhur Abdurauf Fitratdan ham ta‘lim olgan².

Yahyo G‘ulom 1929-1931 yillar mobaynida O‘zbekiston Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi ilmiy-tadqiqot institutining aspiranturasida o‘qidi. 1931-1932 yillarda Toshkent pedagogika bilim yurtida dars berdi.

1930 yil Samarqanddagi O‘zbek davlat pedagogika akademiyasining ijtimoiy-iqtisod bo‘limini tamomlaydi. O‘qishni tamomlab, Ya.G‘.G‘ulomov Toshkentdagi boshlang‘ich maktablardan birida, 1928-1929 yillar - Samarqanddagi Markaziy sovet maktabida dars beradi. Keyingi uch yil davomida - O‘rta Osiyo tarix kabineti yordamchisi va O‘zbek SSR sovet iqtisod qo‘mitasining O‘zbek ilmiy-tadqiqot instituti aspiranti, 1931 yildan -Toshkentdagi pedagogika texnikumi o‘qituvchisi.

1933 yildan Yahyo G‘ulomovning ilmiy faoliyati boshlangan. 8 yil davomida tarixiy va san‘at yodgorliklarini saqlash Respublika komiteti (“Uzkomstaris”) da ilmiy xodim hamda ilmiy kotib lavozimida ishladi. O‘sha yildan, ya‘ni 25 yoshida arxeologiya faniga qattiq mehr qo‘ydi³.

1933 yilda M.Ye. Masson boshliq Ayritom ekspeditsiyasida, keyin A.Yu. Yakubovskiy boshliq Zarafshon ekspeditsiyasida qatnashdi. 1936 yildan esa Xorazm arxeologik ekspeditsiyasida mustaqil faoliyat ko‘rsata boshladi. Adashmasam, Y.G‘ulomovning respublika fanlar akademiyasida mehnat faoliyati 1940 yildan

¹ Академик Яхё Ғуломов замондошлари ва шогирдлари хотирасида. – Тошкент: Фан, 2009.

² Академик Яхё Ғуломов замондошлари ва шогирдлари хотирасида. – Тошкент: Фан, 2009.

³ Аскарлов А.А. Памятники андроновской культуры в низовьях Зарафшана // ИМКУ, вып. 3. Ташкент, 1962.

boshlandi. Ilmiy xodim, arxeologiya, qadimgi va o'rta asr tarixi bo'limlari mudiri, institut direktori va boshqa lavozimlarda faoliyat yuritdi. Tezda yirik olim bo'lib tanildi. Yahyo G'ulomov ilmiy xulosalarida aslo shoshilmasdi⁴.

Yangilikni obdon o'ylab tekshirib, so'ng e'lon qilishiga o'zim guvohman. Boshqalarni ham shu odatga da'vat qilar edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, nomzodlik dissertasiyasini 35 yoshida, doktorlik dissertasiyasini 42 yoshida himoya qilgan. Bu muddat fanimizda ham tezkorlik boshlangan hozirgi davrda olimlarni andak o'ylantirib qo'yishi mumkin. Lekin iqror bo'lish kerak, 1950 yili «Xorazmning qadimgi davridan boshlabhozirga qadar sug'orish tarixi» mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida qilingan ilmiy va nazariy xulosalar, amaliy takliflar, mana salkam 60 yildirki, o'z qimmatini yo'qotgan emas. Domla xulosalarini ilmda haqiqiy kashfiyot desa bo'ladi (Asar 1957, 1959 yillari o'zbek va rus tillarida nashr qilingan)⁵.

Shundan keyin u 1933-1940 yillarda O'zbekiston Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Tarixiy yodgorliklarni saqlash va ilmiy o'rganish respublika komitetida ilmiy xodim, so'ngra ilmiy kotib lavozimida xizmat qildi. Yahyo G'ulom Surxondaryo va Zarafshon arxeologiya ekspeditsiyalarida qatnashib, qadimgi davr tarixini o'rgandi. Bu borada 1936-1937 yillarda Yahyo G'ulomning Xorazmdagi arxeologiya ekspeditsiyalarida yuritgan ishlari katta ahamiyat kasb etadi. Ya.G'.G'ulomovning ilmiy faoliyati 1933 yildan boshlangan: 1933-1940 yillar u O'zbekiston qadimiy yodgorliklari va san'at asarlarini qo'riqlash qo'mitasi ilmiy xodimi va ilmiy kotibi. Shu vaqtdan e'tiboran, u arxeologik tadqiqotlarda qatnashadi, ilmiy ekspeditsiyalar va tekshirishlarda ishtirok etadi.

1940 yildan Ya.G'.G'ulomov SSSR FA O'zbekiston bo'linmasida ishlaydi: avvaliga, Tarix, til va adabiyotshunoslik instituti arxeologiya bo'limi mudiri, 1943 yildan umrining oxirigacha – O'zSSR FA (1956-1959 yillar u shuningdek, ushbu institutda direktor vazifasini ham bajargan) tarix va arxeologiya institutining qadim va o'rta asrlar bo'limi mudiri. Ilmiy va pedagogik faoliyatini umumlashtirib, ko'p yillar davomida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida ishlagan (ma'ruza kurslari, O'zbekiston tarixi va arxeologiyasi darslari)⁶.

Yahyo G'ulomning arxeologiya sohasidagi yutuqlaridan biri shundan iborat ediki, u o'rta asr qo'lyozma manbalari asosida fanga noma'lum bo'lgan ayrim qadimiy shaharlarning qayerdaligini va nomini belgilab berdi. U o'sha vaqtlardagi arxeologlar orasida qo'lyozma manbalarni yaxshi bilgan olim edi. Zabardast olimning ilmiy faoliyati vaqt o'tishi bilan rivojlanib boraveradi. 1940-1943 yillarda u SSSR Fanlar akademiyasi O'zbekiston filialining Tarix, til va adabiyot instituti qoshidagi

⁴ Мухаммаджонов А.Р. Яхё Гуломов. – Тошкент, “Фан”, 1986. Б. 40.

⁵ Мухаммаджонов А.Р. Яхё Гуломов илмий фаолиятининг асосий йўналишлари // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1998 йил, 4-5 сонлар. – Б. 5-6.

⁶ Мухаммаджонов А.Р. Яхё Гуломов. – Тошкент, “Фан”, 1986. Б. 40.

arxeologiya bo‘limiga rahbarlik qildi. 1943 yilda esa “Xiva va uning obidalari” mavzuida tarix fanlari nomzodlik dissertasiyasini himoya qildi. Shunday qilib, Yahyo G‘ulom siymosida o‘zbeklardan birinchi marotaba arxeolog olim yetishib chiqqan edi⁷.

1943 yil “Xiva va uning yodgorliklari” mavzusida nomzodlik, 1950 yil Moskvada “Qadimgi davrdan hozirgi kungacha Xorazm qurg‘oqchiligi tarixi” mavzusida doktorlik dissertasiyasini himoyalagan. Asarning afzalliklaridan biri shundan iboratki, muallif arxeoliya yodgorliklarini yunon, arab, fors va boshqa manbalardagi ma’lumotlarni jalb qilgan holda ta’riflagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухаммаджонов А.Р. Яхё Гуломов илмий фаолиятининг асосий йўналишлари // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1998 йил, 4-5 сонлар. – Б. 5-6.
2. Мухаммаджонов А.Р. Яхё Гуломов. – Тошкент, “Фан”, 1986. Б. 40.
3. Аскарлов А.А. Памятники андроновской культуры в низовьях Зарафшана // ИМКУ, вып. 3. Ташкент, 1962
4. Академик Яхё Гуломов замондошлари ва шогирдлари хотирасида. – Тошкент: Фан, 2009.
5. Bobohusenov, A. (2024). THE RESULTS OF THE ARCHAEOLOGICAL RESEARCH WORKS CARRIED OUT IN BACTRIA. Modern Science and Research, 3(2), 671–675. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30363>
6. Ashurovich, B. A. . (2024). Results of the Archaeological Research Works Carried Out in Bactria. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 113–119. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2686>
7. Bobohusenov, A. (2024). HISTORICAL GEOGRAPHY OF BUKHARA OASIS. Modern Science and Research, 3(2), 634–640. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29429>
8. Akmal, B., & Ismat, N. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXELOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. Innovations in Technology and Science Education, 2 (8), 73–80.
9. Akmal , B. (2024). THE GREAT WALL OF THE EARLY MIDDLE AGES - KANPIRAK WALL. Modern Science and Research, 3(1), 694–698. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28381>
10. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. TADQIQOTLAR, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>

⁷ Мухаммаджонов А.Р. Яхё Гуломов. – Тошкент, “Фан”, 1986. Б.36

11. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. International Journal Of History And Political Sciences, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>
12. Bobohusenov Akmal. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 65–70. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10037>

